

**INNOVATSION TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA
DAVLAT SIYOSATI**

JO'RAXONOV JAVOHIR JAHONGIR O'G'LI
MILLAT UMIDI UNIVERSITETI TALABASI

ANNOTATSIYA: Ushbu tezisda innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirishda davlat siyosatining tutgan o'rni haqida ma'lumotlar keltirilgan. Innovatsion tushunchasi, innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirish usullari va tadbirkorlarning yangi g'oya va texnologiyalarni amaliyotga joriy etishga yordam beradigan asosiy yo'nalishlari haqida yoritib berilgan. Ushbu tezis shu sohaga qiziquvchi tadqiqotchilar va erkin izlanuvchilar uchun foydali bo'lishi mumkin.

KALIT SO'ZLAR: Innovatsiya, tadbirkorlik, iqtisodiy jarayon, siyosat, infratuzilma, texnologiya, byudjet,

ABSTRAC: This thesis presents information on the role of state policy in the development of innovative entrepreneurship. It explains the concept of innovation, methods for developing innovative entrepreneurship, and the main directions that help entrepreneurs introduce new ideas and technologies into practice. This thesis may be useful for researchers and independent scholars interested in this field.

KEY WORDS: Innovation, entrepreneurship, economic process, policy, infrastructure, technology, budget.

АННОТАЦИЯ: В данной тезисе представлена информация о роли государственной политики в развитии инновационного предпринимательства. Раскрывается понятие инноваций, методы развития инновационного предпринимательства, а также основные направления, способствующие внедрению предпринимателями новых идей и технологий в практику. Данный тезис может быть полезен для исследователей и самостоятельных соискателей, интересующихся данной сферой.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: Инновация, предпринимательство, экономический процесс, политика, инфраструктура, технология, бюджет.

KIRISH

Hozirgi kunda innovatsion tadbirkorlik iqtisodiy taraqqiyotning muhim omili hisoblanadi. Innovatsiyalar yangi ish o'rinlari yaratadi va raqobatbardoshlikni oshiradi. Davlat siyosati innovatsion tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynaydi. Jahon miqyosida sodir bo'layotgan iqtisodiy jarayonlar, rivojlangan mamlakatlar iqtisodiy yuksalishining asosiy belgisi sifatida innovatsion yondashuvlar, yangi texnologiyalarni jalb etish va ularni samarali iqtisodiy mexanizmlar bilan qo'llab-quvvatlash muhim o'rin tutishini

ko'rsatadi. Jumladan, innovatsion-investitsion tadbirkorlik milliy iqtisodiyotlarni zamonaviylashtirish, yangi bozorlarni ishga tushirish va xalqaro integratsiyani kuchaytirish vositasi sifatida ko'rilmoqda. Rivojlangan mamlakatlarda innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirish jarayoni bevosita davlatning siyosati, ventur capital bozori, startap ekotizimlari va ilmiy – tadqiqot muassasalarining faoliyatiga bog'liq holda shakllangan.

Innovatsion tadbirkorlik-bu bugungi globallashtirish va raqamli transformatsiya davrida iqtisodiy taraqqiyotning bosh harakatlantiruvchi kuchlaridan biri hisoblanadi. Ushbu tezisda dastlab innovatsion tadbirkorlik tushunchasi haqidagi ma'lumotlarga to'xtalamiz. Demak, innovatsion tadbirkorlik-bu mavjud bozor talablariga javob beradigan, shu bilan birga ilgari mavjud bo'lmagan g'oya, texnologiya yoki yondashuv asosida yangi tovar yoki xizmatlar yaratish orqali iqtisodiy iqtisodiy foyda olish jarayoni hisoblanadi.

Innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirish yo'llari-bu innovatsiyaga asoslangan biznesni rivojlantirishga qaratilgan usullar, mexanizmlar va choralar majmui hisoblanadi.

Innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirishda davlat siyosati muhim va hal qiluvchi o'rinni egallaydi. Davlat innovatsiyalar uchun qulay muhit yaratib, tadbirkorlarning yangi g'oya va texnologiyalarni amaliyotga joriy etishiga yordam beradi. Asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

*** Huquqiy-me'yoriy bazani takomillashtirish.** Innovatsion va investitsion jarayonni qo'llab quvvatlash uchun mustahkam qonunchilik muhiti yaratish, startaplar va kichik biznes uchun alohida imtiyozlar joriy etilsa maqsadga muvofiq bo'ladi;

***Moliyaviy mexanizmlarni kengaytirish.** Ventur kapital, davlat byudjetlari va shaxsiy investitsiya jamg'armalarini shakllantirish, davlat-xususiy sheriklik asosida yangi iqtisodiy mexanizmlarni joriy etish orqali yaxshi natijalarga erishish mumkin;

***Innovatsion infratuzilmani rivojlantirish.** Texnoparklar, inkubatorlar va akseleratorlar sonini ko'paytirish, ilmiy-tadqiqot institutlari va ko'p tarmoqli oliygohlar bilan hamkorlikda innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash kerak;

***Kadrlar salohiyatini oshirish.** Germaniyaning "dual ta'lim" modeli misolida, o'quv tizimini amaliyotga yaqinlashtirish, barchani ilmiy-tadqiqot va startap faoliyatiga jalb etish orqali kadrlar salohiyati oshadi;

***Tadbirkorlik madaniyatini shakllantirish.** Yoshlar orasida startaplar uchun byudjetlar, tanlovlar va akseleratsiya dasturlarini joriy qilish orqali innovatsion muhitni shakllantirish mumkin;

***Xalqaro hamkorlikni kengaytirish.** Yevropa Ittifoqi, OECD, WIPO va boshqa xalqaro organizatsiyalar tajribasidan foydalanish, qo'shma ilmiy va investitsion loyiha va anjumanlarda ishtirok etish samarali bo'ladi;

***Bozor infratuzilmasini modernizatsiya qilish.** Ichki va tashqi bozorlar uchun innovatsion mahsulotlarni ilgari surish, logistika va marketing tizimini shakllantirish natijasida innovatsion-investitsion tadbirkorlikni yanada rivojlantiradi.

Shuningdek, davlat siyosati innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi, tadbirkorlarni rag'batlantiradi va mamlakat iqtisodiy taraqqiyotini tezlashtiradi.

Innovatsiya sohasidagi faol davlat siyosati, innovatsion jarayonlarni tashkillashtirishni davlat tomonidan bevosita va bilvosita qo'llab quvvatlanishi, innovatsion faoliyatni rivojlantirish – innovatsion texnologiyalar, tovarlar va xizmatlar yaratish, ular asosida ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, tijoratlashtirish va ularning iste'molini oshirish orqali zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat taraqqiyoti va jamiyat a'zolari turmush tarzi sifatini oshirishning asosiy yo'li hisoblanadi. Shunday qilib, davlatning innovatsion siyosati, ta'lim sohasidagi siyosat bilan ham, mamlakatning iqtisodiy siyosati bilan ham chambarchas bog'liq bo'lishi muhim. Innovatsion jarayonlarni tashkil etish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar natijasiga ko'ra innovatsion jarayonlarni samarali ishlab chiqish jarayoni quyidagi tartibda amalga oshirilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

1. Bozordagi taklif va talablar haqida ma'lumotlar yig'ish;
2. Yig'ilgan mavjud ma'lumotlarni tahlil qilish;
3. Tahlil natijasida innovatsion rivojlanish yo'nalishini belgilash;
4. Moliyalashtirish manbasini tashkil qilish;
5. Innovatsiyani ishlab chiqarish ustida izlanishlar olib boorish;
6. Izlanishlar natijalarini tekshirish va amalda sinab ko'rish;
7. Yaratilgan innovatsiya to'g'risida iste'molchilarni ogohlantirish;
8. Innovatsiyani tijoratlashtirish;
9. Innovatsiya tijoratini va iste'molchi bahosini tahlil qilish;
10. Innovatsiyaning uzluksiz yangilanib borishi va innovatsion jarayonning takrorlanishini ta'minlab borish;

Innovatsiya jarayonlarni tashkil etish va rivojlantirish yo'nalishidagi xalqaro munosabatlarni tartibga solish, mamlakatda jazibador innovatsiya muhitini yaratish, mavjud innovatsion infratuzilmaning taraqqiyotini ta'minlash va milliy innovatsion tizimini yaratish asosan davlat tomonidan amalga oshiriladi. Innovatsion jarayonlarni huquqiy tartibga solish ham davlatning vakolatiga kiradi. Ular quyidagilardan iborat:

*Intellectual mulkni himoya qilish

*Innovatsiyalarga bo'lgan ilk talablarni ta'minlash

Ushbu vazifalarni amalga oshirish uchun davlat o'zining strategik va taktik innovatsion siyosatini ishlab chiqib, amalda qo'llaydi. Demak davlat o'zining

innovatsion siyosatini samarali amalga oshirish uchun takomillashtirish ishlarini amalga oshirishi lozim.

Davlat xususiy sektorga innovatsiyalarni joriy etish uchun imtiyozlar joriy etishi lozim. Bunga korxonalarning eksport faoliyatini qo'llab quvvatlash, kapital samaradorligini kiritish mumkin. Korxonalarda ishlab chiqarish hajmi va faoliyati davomiyligining o'sishini rag'batlantiradigan qo'shimcha mexanizmlarni yaratish kerak, chunki bu korxonalar innovatsiyalarga investitsiya kiritish manbaiga ega bo'lgan faoliyatni amalga oshiradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirish orqali ishlab chiqarish samaradorligi ortadi, yangi texnologiyalar keng joriy etiladi, ilmiy-tadqiqot ishlanmalari amaliyotga tadbiiq etiladi. Innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirishda davlat siyosati muhim o'rin tutadi. Davlat tomonidan yaratilayotgan qulay sharoitlar, moliyaviy va huquqiy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari innovatsion g'oyalarni amaliyotga tadbiiq etishga xizmat qiladi. Natijada mamlakat iqtisodiyoti barqaror rivojlanib, jamiyat farovonligi oshadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. <https://sci-p.uz/index.php/aept/article/download/3031/2828/579>
2. <https://cyberleninka.ru/article/n/innovatsion-tadbirkorlik-va-uning-zamonaviy-iqtisodiyotdagi-o-rni>
3. <https://cyberleninka.ru/article/n/innovatsion-jarayonlarni-rivojlantirishda-davlat-boshqaruvining-rol-i/viewer>